

**ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OG`ZAKI NUTQINI
O`STIRISH**

Abduraximova Nazokat Orziqu洛ovna
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani 55- maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darsi o'qitish metodikasi, dars jarayonida olib boriladigan ishlar, ona tili darslarida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish haqida ma'lumotlar berilgan. Avvalo, dars turlari uning didaktik maqsadiga ko'ra belgilanadi, chunonchi: yangi materialni o'rganish darsi, bilimni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganini hisobga olish (tekshiruv) darsidir. Har bir dars turi muayyan qurilishi bilan boshqasidan farqlanadi quyida shular haqida. So`z boradi.

Kalit so`zlar: ona tili mashg`ulotlari, nutq o`stirish, ahamiyat, dars, maqsad, ijodiy yondoshish, modul, o`quv soati, tafakkur, o'qitish metodikasi, nutq, so'z, so'z birikmasi, gap, sintaktik qurilish, lug'at, pedagogika, adabiyot.

Abstract: This article provides information on the teaching methodology of the native language class, the activities carried out during the lesson, and the development of students' speech in the native language classes. First of all, the types of lessons are determined according to their didactic purpose, such as: a lesson for learning new material, a lesson for strengthening knowledge, a generalizing-repeating lesson, a lesson for taking into account (checking) the extent to which knowledge has been mastered. Each type of lesson differs from another with a specific structure, which is discussed below. The word goes.

Key words: native language training, speech development, importance, lesson, goal, creative approach, module, lesson, thinking, teaching methodology, speech, word, word combination, speech, syntactic construction, vocabulary, pedagogy, literature.

Kirish: Ona tili darslarining barcha bosqichlarini bir jarayonga birlashtirish o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilar modul usulida mustaqil ishlashga o'rgatib borilsa, keyingi sinflarda ham shu kabi darslami tashkil etish osonlashadi, chunki o'quvchilarda bu haqda ko'nikmalar hosil bo'la boradi. Ona tili darsi, awalo, o'quvchilar nutq va tafakkurini o`stirish darsidir. Ona tili darslari ijtimoiy-foyDALI bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini gram m atik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o`stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilam ing tilimizdagi har bir so'z turkumi yoki so'z qismining rolini

bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo'llashni talab etadi, ya'ni grammatic nazariya gram m atik to'g'ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o'stirishga amalda tatbiq etish uchun o'rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o'stirish darsning mazm unida va qo'llanilgan vazifalar turlarida o 'z aksini topadi. Grammatik, so'z yasalishiga oid, imloviy materiallarni o'rganishni nutq o'stirish bilan bog'lash o'quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi.

Asosiy qism: Bolalar nutqini o'stirish jarayoni ularning tafakkurini o'stirish bilan bog'liq. Ona tili darsi o'quvchilar taffakurini o'stirish ustida ishslash maqsadiga yo'naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan gram m atik va imloviy materialni o'rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o'zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o'tkazish tushuniladi. Masalan, “O'zakdosh so'zlar” tushunchasini shakllantirish uchun so'zlam ing leksik m a'nosi va m orfemik tarkibini taqqoslashni (ularning ma'nolarida umumiylilikni va ularda bir xil o'zakning mavjudligini) bilish lozim. O 'quvchilar tafakkurini o'stirish uchun o'qituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa tu rlarini tanlaydi, darsning materialini va uni o'zlashtirishda o'quvchilar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi. O'quvchilarga beriladigan nazariy bilim tildan ongli foydalanish imkonini beradi. Nazariyaga aham iyat berish, elem entar tarzda bo'lsa ham, o'quvchilam ing til hodisalari o'rtasidagi bog'lanishni bilib olishiga e 'tibor berish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday bog'lanishni bilsalar, nima uchun shunday? so'rog'iga www.ziyouz.com kutubxonasi javob topa oladilar. Masalan, “Nima uchun daftar so'zi kelishik va egalik qo'shim chalari bilan turlanadi, o'qidik so'zi esa shaxs-son qo'shim chalari bilan tuslanadi?”. Ona tili darslarining foydali bo'lishiga darsda og'zaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq o'tkazish, o'quvchilam ing o'quv ishlarni tekshirib, nazorat qilib borish, o'z vaqtida xatolarning oldini olish va to'g'rilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta 'sir ko'rsatadi.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishslash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishslash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishslash. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishslash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o'quvchilardan grammatic va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnidagi to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodalni, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida

xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiatini yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog’liq. So’zni to’g’ri yozish, tinish belgilarini o’rinli qo’llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o’quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o’ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og’zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O’quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo’l qo’ymaslikka intiladi. O’qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko’pincha o’quvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e’tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda ko’pincha mavzuga aloqasi bo’lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e’tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashg’ulotlarida o’quvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo’lishi, materialning to’g’ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to’g’ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. Ona tili mashg’ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o’quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o’z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlanadir. O’quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og’zaki, yozma shakllarda to’g’ri, ravon ifodalay olsalar, demak, ona tili mashg’ulotlari samarali o’tgan bo’ladi.

O’zbekiston Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlarning xalq ta’limi boshqarmalari olib borgan tekshirish natijalari, shuningdek shaxsiy kuzatish va tajribalarimiz bizni o’quvchilar nutqining rivojlanganlik darajasi hali talabga javob bermaydi degan xulosaga olib keladi. Tilning lug’at boyligini o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so’zlar va ularning ma’nolari quyidagicha tanishtiriladi: O’quvchilarni notanish so’z va iboralar bilan tanishtirish. O’quvchilar darslikdagi so’z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo’lishi mumkin. Bu so’z yangi paydo bo’lgan so’z bo’lmasa ham, o’quvchi uning ma’nosini bilmaydi, demak, o’quvchi uchun yangi so’z hisoblanadi. O’quvchilami so’zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish. O’quvchilar ko’p ma’noli so’zlarning bir ma’nosini tushunsa, boshqa ma’nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so’zlarning hamma ma’nolarini birdaniga o’zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma’nosini o’zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Xulosa. Jamiyatimizni erkinlashtirish g’oyasi bevosita ta’lim jarayonida o’z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o’zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta’milanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Havas qilsa arziydigan ulug’ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo’ladi.

Adabiyotlar ro`yhati:

1. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. — T.: „O'qituvchi 41, 1992.
2. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. — T.: 2003.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi", 1992.
4. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi", 1999.
5. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlaii (1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: „0 'qituvchi", 1997.